

**O‘. HOSHIMOVNING “IKKI ESHIK ORASI” ROMANIDA BADIY
PERSONAJLARNING ICHKI HISSIYOTLARINI NAMOYON ETISHDA
METAFORANING O’RNI**

Raxmonova Amira Ulfatovna

**Samarqand davlat chet tillar instituti, Ingliz tili leksikasi va stilistikasi
kafedrasi katta o’qituvchisi, mustaqil tadqiqotchisi**

amika9128@inbox.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘. Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida badiy personajlarning ichki hissiyotlarini namoyon etishda metaforaning o’rni va tahliliga bag’ishlangan.

Kalit so’zlar: stilistik vosita, personaj, hissiyot, metafora, roman, emotivlik.

Hissiyot og’zaki yoki yozma muloqotda, nasr va nazmda uchraydi. Umuman olganda inson hayotining har bir jabhasini his-tuyg’ularsiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Har bir inson individualdir va o’z g’azabini, sevgisini, nafratini, qo’rquvini va boshqalarni turlicha ifodalaydi. Hissiyot tushunchasi psixologiya, sotsiologiya, pragmatika, tilshunoslik, adabiyotshunoslik kabi turli sohalarda o’rganiladi [6,9]. Bugungi kunda badiiy asarlarni semantik, pragmatik, stilistik tadqiqi tilshunoslikning dolzarb yo’nalishlariga aylanib bo’lgan. Stilistik vositalar badiiy adabiyotda keng qo’llaniladi. Mazkur maqolada O’tkir Hoshimovning mashhur asarlaridan hisoblangan “Ikki eshik orasi” romanida badiiy personajlarning ichki hissiyotlarini namoyon etishda metaforaning ishlatilishi tahlil qilinadi.

Buyuk ijodkor O’tkir Hoshimovning hayotiy romanlari izlanuvchi tilshunoslarni turli-tuman misollar girdobiga g’arq qiladi va yozuvchining quyidagi so’zlari fikrimiz isboti bo’la oladi. “Shunday asar yozsangki, kitobxon o’qiganida hamma narsani unutsa asar qahramonlari hayoti bilan yashasa, quvonsa, iztirob cheksa... Kitobni o’qib bo’lgan kuni kechasi bilan uxlamay, tulg’onib chiqsa... kelib, o’sha kitobni yana qo’liga olganida qaytadan hayajonga tushsa... Undan yangi ma’nolar tuysa... Orzum-shu...” [7]. Yozuvchining asarlarini kuzatar ekanmiz, uning tildan, uning nodir topilmas so’zlaridan naqadar mahorat bilan

unumli foydalanadi. Bu so'zlar tizimi bevosita uslubiyat, badiiy tasvir vositalari bilan bog'liqdir.

O' Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romani yillar davomida kitobxonlar tomonidan sevib mutolaa qilinadi. Romanida o'z davrining dolzarb muammolari yoritilib, ushbu voqea-hodisalarga nisbatan munosabat bildirilgan. Romanning asosiy qahramonlari ikkinchi jahon urushi qiyinliklarini yelkasida ko'targan, unda mardona g'olib chiqqan kishilardir. "Ikki eshik orasi"da inson umri, ya'ni tug'ilganidan to vafotigacha bosib o'tgan yo'li nazarda tutadi. Muallifning g'oyaviy falsafasiga ko'ra, bu yo'l juda murakkab va ziddiyatli bo'lib, uni muvaffaqiyat bilan bosib o'tishi uchun insondan katta matonat, iroda, bilim va jasorat talab qilinadi. Asardagi ko'plab qahramonlar, xususan, Oqsoqol, Qora amma, Robiya, Shomurod, Kimsan xuddi aytilganidek jasoratlari va ma'nani boy kishilar bo'lib, ko'p jihatdan yozuvchining g'oyaviy maqsadini ta'sirli ifodalashga xizmat qilgan. Romanda personajlar qismati orqali yozuvchi yashashning ma'nosi, insonning insoniylik sha'ni, burchi, mas'uliyati, e'tiqodi, ichki hissiyotlari, maqsadlarini ifodalaydi. Qo'llanilgan stilistik vositalar kitobxonni personajlar haqida tasavvur qilishga, bahsga chaqiradi. Asarda ko'plab katta-kichik personajlar mavjud. Qimirlagan jon borki, hammasi davr dard-tashvishi bilan nafas oladi. Raykom sekretari Abdurahmonov, muallim Samadov, Rashid abzi, dyadya Vasya, Parcha opa, Ochil, Zuhra kelin kabi qahramonlardan tortib asarning asosiy qahramoni Muzaffargacha - barchasi murakkab, chigal, mushkul taqdir egalari. Yozuvchi bosh qahramonlar, xususan Muzaffar, uning tuqqan onasi Robiya, otasi Shomurod, o'gay ota Umar zakunchi, sevgilisi Munavvar, Qora amma, Husan duma, Orif oqsoqol, Bashoratxon, Komil tabib obrazlarini, ularning qalb dunyosini yorqin ochib beradi.

Adabiy yo'nalishlar, badiiy asar va ijodkor stilini ochib beradigan badiiy adabiyot bu stilistikadir. Uning vazifasi badiiy asarlarni yozishda yozuvchilar ahlining ifoda vositalarini qo'llash mahorati haqida mulohaza olib borishdir.

Stilistik vositalar matnlarda belgilangan birliklar vazifasini bajaradi. Stilistik vositalar har doim qo'shimcha emotiv yoki mantiqiy ma'no anglatadi. Stilistik

vositalarning vazifasi haqidagi V. M. Zirmunskiy quyidagicha fikr yuritadi: "Har bir vositaning mantiqiy ma'nosи va emotivligi badiiy asarning o'ziga xos xususiyatlari sifatida paydo bo'lган badiiy taassurotning yaxlitligi hisoblanadi. Har bir alohida estetik fakt, har bir poetik vosita (urg'u qo'shilgan) tizimda o'z aksini topadi, so'zlarning tovush va ma'nosi, sintaktik strukturalari, syujet sxemasi, kompozitsion mazmun-mohiyati bularning barchasi teng darajada bir butunlikni ifodalaydi" [4,30].

Stilistik vositalar badiiy asarlarda faktlar, voqealar yoki g'oyalarga nisbatan ishlatiladi, lekin doim ham ko'zga tashlanavermaydi. Badiiy personajlarning ichki hissiyotlarini namoyon etishda yozuvchi va shoirlar bir qator stilistik vositalardan unumli foydalanishadi. Jumladan, metafora, oksimoron, epitet, metonimiya va boshqalar. "Ikki eshik orasi" romanida emotivlik belgisi sifatida ko'plab metaforalar ishlatilgan. Quyidagi misollarda ularnng tahlilini kuzatishimiz mumkin.

- (1) *Shavkat Qudratovichning rangi o'chib ketdi* [5,6].
- (2) *Uning rangi o'chgan, terlab ketgan yuzini kafti bilan artgan bo'lsa kerak, barmoq izi qorayib turar, mo'ylovi titrar edi* [5,39].
- (3) *Bu gap qandoq og'zimdan chiqib ketganini bilmayman, Robiyaning qolidagi qiyiqcha sirg'alib yerga tushdi. Rangi o'chib, yuzimga hayratlanib qaradi* [5,45].
- (4) *Pakana kishining jahli yomon ekan. Avval dadamga, keyin cholga rangi o'chib qaradi-da, chopib borib, Oqsoqolga xezlandi* [5,52].
- (5) *Dadam rangi quv o'chgancha muzdek labi bilan peshonamdan o'pdi* [5,60].
- (6) *Kimsan akam yerga sakrab tushdi. Qurigan kesakka qoqilib, munkib ketdi. Rangi quv o'chib, entikib nafas olayotganini sezdim* [5,100].
- (7) *Oyim shundoq yerga o'tirib qolgan, rangi quv o'chib, ro'moli yelkasiga sirg'alib tushgan, ko'zi yumuq edi* [5,110].
- (8) *Avval rangi o'chdi. Keyin lablari pirpiray boshladi. Qiyiqchani yuziga bosdiyu, yelkalari titrab-titrab, birdan o'zini namat to'shalgan yerga otdi* [5,129].
- (9) *Narigi uydan avval yoqavayron Orif oqsoqol, ketidan rangi o'chgan tabib bilan Umar zakunchi chiqib kelishdi* [5,185].

(10) - *Nima? - Dadam qattiq oqsoqlangancha yaqin keldi. Rangi quv o‘chib ketdi* [5,189].

(11) *Shavkat Qudratovichning rangi gezarib ketdi* [5,7].

(12) **Rangi gezarib**, ovozi chiqmay qoldi. [5,40].

(13) *Oqsoqol uyog‘ini aytmadni. Ammo Zakunchining rangi gezarib ketganini payqadim* [5,214]

(14) **Rangi zahil**, qulog‘ining orqasida danakdek so‘gali bor begona odam kelib, dadamning kitobdaftarlarini rosa titkiladi. Ancha-muncha narsalarni olib ketdi [5,63]

(15) *Oldiga boray desam, yo‘limni rangi zahil*, qulog‘ining orqasida so‘gali bor odam to‘sib turganmish [5,63]

(16) *Hozir Zuhra kelinni ko‘rib, o‘sha gaplar esimga tushdi. Chindan ham rangi bir holatda*, surma tortilgan ko‘zlar kirtayib qolgan [5,75]

(17) *Ovsinim qalin ro‘mol o’ragan. Nuqlul harsillaydi. Rangi bir holatda* [5,199].

(18) *O‘z onamni elas-elas xotirlayman. Pastak shiftli uyda, deraza tagida nuqlul osmonga qarab yotar edi. Rangi sarg‘ayib*, ikki chakagi ich-ichidan kirib ketgan [5,47]

(19) *Bobom hamon tipirchilar, oyim rangi bo‘zday oqargancha* ko‘zi yumuq, boshini bir tomoniga tashlab o‘tirar, bobom yelkasidan tutib turmasa, gursillab yiqlishi aniq edi [5,111].

(20) - *Hozir! - U zambil to‘la kartoshka ustiga tappa o‘tirib qoldi! Hansirab nafas oldi. Rangida rang qolmagan*, og‘zini baliqdek kappa-kappa ochar, gunoh ish qilib qo‘yib, dakki eshitishdan cho‘chigan boladek ayanchli iljayar edi [5,143].

Yuz rangi kontsepsiysi bilan bog’liq bo’lgan yigirmata misollar orqali romanda faol ishlatalgan bo’lib ularning barchasi personajlarning tushkun ahvolini ifodalaydi. Barcha misollarda rang kishining yuziga nisbatan va aksariyati hikoyachi tomonodan turli obrazlarning hissiy holatini tasvirlash uchun qo’llanilgan. Ushbu metaforalarni son jihatdan tahlil qiladigan bo’lsak “**Rangi o‘chgan**” yoki “. **Rangi quv o‘chib**” o‘n marta, “**Rangi gezarib**”, “**Rangi zahil**”, “**rangi bir holatda**” ikki martadan, “**Rangi sarg‘ayib**”, “**Rangi bo‘zday**

oqargancha”, “*Rangida rang qolmagan*” bir martadan uchraydi. Romandagi voqealar urush davrini tasvirlagani uchun barcha keltirilgan misollardan negative hissiyotlarga boy. Jumladan, (1), (4), (11), (14) misollarda personajlarning jahl, g’azab kabi his-tuyg’ularini ifodalashini tushunishimiz mumkin. (1), (5), (6), (7), (10), (13), (20) gaplarda qo’rquv, xavotir, ma’lum bir narsadan yoki kishidan cho’chish holatlari kuzatiladi. (3) misolda esa Robiyaning eshitgan noxush xabardan hayratlangani, ruhiy iztirobda qolganini har qanday kitobxon tushunib yetadi. (8), (9), (12), (16), (17), (18), (19) misollarda esa tushkun kayfiyat, xafagarchilik, qayg’u hislari yaqqol namoyon qilingan. Bu misollardan, shuningdek, personajlarning sog’ligii ham yaxshi emasligini tushunish mumkin. Kishining rangi-ro’yi nafaqat hissiyotlari haqida, balki sog’lig’i haqida ham ancha ma’lumot beradi. (15) gapda tasvirlanayotgan kishiga nisbatan nafrat va qandaydir hayiqish hissi tasvirlanadi. Bu asarda, asosan, yuz rangi orqali personajlarning negativ hissiyotlari namoyon qilinadi. Shuni ta’kidlash joizki, “*rangi zahil*” va “*rangi gezarib*” metaforalari nafratga sazovor bo’lgan kishilarni tasvirlashda ishlatilgan. Demak, bu **zahil** va **gezarib** so’zlari ko’proq bo’lishsiz bo’yoqga ega. Qolgan iboralar esa Robiyaning yaqin kishilariga nisbatan ishlatilgan.

Badiiy personajlarning qanday kechinmalarni boshidan o’tkazayotganini aniq ifodalanishida nafaqat stilistik vositalar, balki dialoglar, matnda keltirilgan vaziyatlar ham ko’maklashadi.

Keyingi missollarda personajlarning hissoylari boshqa bir kishiga yoki narsaga nisbat namoyon etishida tog’ so’zli metforalarning tahlilida ko’rish mumkin.

- (1) *Kimsan akam tog’dek yigit bo’lgan. (73 b) faxr g’urur*
- (2) *Halgina biznikida «ma’lum oshi» berib quvongan odamlar uyga kirishi bilan boshiga tog’dek kulfat tushsa! (187 b)*
- (3) *Boshiga tog’dek g’am tushib turgan Potma-Zo’ra kelinlarga shunaqa paytda yordam bermasa, qachon beradi! (198 b)*

Birinchi keltirilgan misolda Robiya personajining akasiga nisbatan faxr hissini, uni hurmat qilishini “*tog’dek yigit*” metaforasi yordamida yaqqol namoyon

bo'lganini sezish mushkul emas. Keyingi ikki misolda esa, "tog'dek" so'zi qatnashgan vaziyatlarda personajning inkor hissiyotlarini anglash qiyin emas. Ya'ni, "***tog'dek kulfat***" va "***tog'dek g'am***" sinonim iboralari iztiroblanish ma'nosini kuchaytirib beradi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, O' Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanida, asosan, personajlarning hissiyotlari negative ma'no kasb etadi. Sababi aniq, urush xalq boshiga kelgan katta kulfatdir. Tahlillardan shu narsa ayon bo'ladiki, muallif biri-biri bilan chambarchas bog'langan, personajlarning turli xil bo'ronli hislari, tuyg'ulari, kayfiyatlarini metafora stilistik vositasi yordamida mohirona yetkazib bergan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Arnold I.V. The English Word. –Moscow: High school. 1986.
2. Ashurova D. U. Cognitive Stylistics: views, approaches, perspectives /Stylistics in the light of modern linguistic trends. Papers of scientific practical conference. — Tashkent, 2011.
3. Ashurova D.U., Galieva M.R. Stylistics of Literary text. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi nashriyot, 2013.
4. Galperin I. R. Stylistics. —Moscow: Higher school, 1977. pp. 30-80
5. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Sharq, 2012. 6-214 betlar.
6. Rakmonova A. Stylistic peculiarities of expressing inner emotions of personages in Uzbek and English novels/ *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*: Vol. 2021 : Iss. 2 , Article 2. - P.9.
7. <https://mv-vatanparvar.uz/3872/>

